

DIALEKTLAR VA ULARNING ADABIY TILDAGI O'RNI

Mo'minova Muslimaxon Ma'sudjon qizi

muminovamuslimakhon1@gmail.com

Farg'ona davlat universiteti Chet tillari fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Maqolada o'zbek tilidagi dialektlarning shakllanishi, ularning adabiy tildagi o'rni va ta'siri yoritilgan. Qiyosiy tahlil asosida turli hududiy shevalarning fonetik va leksik farqlari ko'rsatib o'tilgan. Natijada, dialektlar o'zbek adabiy tilining boyligi va milliy madaniyatning ajralmas qismi ekanligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: sheva, adabiy til, dialekt, qarluq, qipchoq, o'g'uz, lahja.

Аннотация: В статье освещается формирование диалектов узбекского языка, их место и влияние на литературный язык. На основе сравнительного анализа показаны фонетические и лексические различия различных территориальных диалектов. В результате было установлено, что диалекты являются богатством узбекского литературного языка и неотъемлемой частью национальной культуры.

Ключевые слова: диалект, литературный язык, диалект, Карлук, Кипчак, Огуз.

Annotation: The article covers the formation of dialects of Uzbek, their place and influence in the literary language. Based on comparative analysis, phonetic and lexical differences of different territorial dialects are indicated. As a result, the dialects have been found to be the wealth of the Uzbek literary language and an integral part of the national culture.

Keywords: accent, literary language, karluk, kipchak, oghuz, dialect.

Har bir xalqning tili – uning milliy boyligi, ma'naviy merosining ajralmas qismidir. Til nafaqat aloqa vositasi, balki xalq tarixining, madaniyatining va tafakkurining ifodasidir. Shu ma'noda, o'zbek tili ham boy tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan, turli davrlarda shakllanib, boyigan va takomillashgan tildir. O'zbek tili adabiy me'yorga ega bo'lishdan avval xalq og'zaki nutqining turli shakllarida, ya'ni dialektlarda yashab kelgan.

Bugungi kunda o'zbek adabiy tili mamlakatimizda rasmiy aloqa, ta'lim, matbuot va ilmiy faoliyatning asosiy tili sifatida mustahkam o'rin egallagan bo'lsa-da,



dialektlarning ahamiyati yo‘qolgan emas. Aksincha, ular adabiy tildagi ko‘plab so‘z boyligi, ifoda vositalari va uslubiy rang-baranglikning manbayi bo‘lib xizmat qiladi.

Dialekt — bu bir xalq tilining ma’lum hududda yashovchi kishilar tomonidan ishlatiladigan, lekin adabiy tilga nisbatan ayrim fonetik, leksik va grammatik farqlarga ega bo‘lgan shaklidir. Dialektlar xalq tili asosini tashkil etadi va tilning tarixiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Har bir dialekt o‘ziga xos tovush tizimi, so‘z boyligi, grammatik qurilishi va talaffuzi bilan ajralib turadi. Masalan, o‘zbek tilining qarluq, qipchoq va o‘g‘uz sheva guruhleri mavjud bo‘lib, ular o‘zbek xalqining qadimiy urug‘-qabila tuzilmasi va geografik joylashuvi bilan bog‘liq. Bu dialektlar tilning tarixiy ildizlarini saqlab qolgan holda adabiy til shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Tilshunolar o‘zbek dialektlarini uch asosiy guruhga ajratadilar:

1. Qarluq (janubiy-sharqiy) shevalar guruhi. Bu guruh asosida hozirgi o‘zbek adabiy tili shakllangan.
2. Qipchoq (shimoliy) shevalar guruhi – Navoiy, Jizzax, Sirdaryo va Qoraqalpog‘istonning ayrim hududlarida uchraydi.
3. O‘g‘uz (g‘arbiy) shevalar guruhi – Xorazm vohasi va Turkmaniston bilan chegaradosh hududlarda tarqalgan.

Bu farqlar o‘zbek tilining boyligini, rang-barangligini va tarixiy qatlamlarini yaqqol ko‘rsatadi.

O‘zbek adabiy tili shakllanish jarayonida dialektlarning ta’siri nihoyatda katta bo‘lgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, XV–XVI asrlarda Alisher Navoiy, Lutfiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi shoirlar qarluq-chig‘atoy tili asosida yozganlar, bu esa keyinchalik o‘zbek adabiy tilining asosiga aylandi.

Dialektlardan kirgan ko‘plab so‘zlar hozirda adabiy tilda mustahkam o‘rnashgan. Masalan: “Beshik”, “ko‘hna”, “do‘ppi”, “g‘isht”, “so‘fi”, “bolta” kabi so‘zlar xalq dialektlari orqali adabiy tilda umumlashgan.

Dialektal ifodalar esa adabiy tilda uslubiy boylik sifatida qo‘llanadi: masalan, badiiy asarlarda mahalliy ruhni yaratishda “voy dod”, “ha endi”, “qani endi” kabi xalqona so‘zlar ishlatiladi.

Adabiyotda dialektlardan foydalanish o‘sha asarning tabiiyligini, xalq ruhiga yaqinligini oshiradi. Masalan, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, O‘tkir Hoshimov kabi yozuvchilar o‘z asarlarida xalq nutqini, mahalliy so‘zlashuv uslubini mahorat bilan qo‘llaganlar. Masalan:

1. Manaman degan obkomlar-u, raykomlarni, raislar-u bug‘altirlarni g‘ippa yoqasidan oldi! (O‘.Hoshimov)

2. Kampir shotining yog‘ochini silab o‘ynar, Enaxon og‘zidan olgan saqichni ezib, “soqqa” yasar. (Cho‘lpon)

Bu kabi ifodalar adabiy tildan biroz chetga chiqsa-da, asarga hayotiylik va tabiiylik bag‘ishlaydi.

Shuningdek, dialektal so‘zlar milliy koloritni yaratadi va o‘quvchini o‘zbek xalqining turmush tarziga yanada yaqinlashtiradi.

Hozirgi globallashuv davrida ko‘plab tillarda dialektlar yo‘qolib borayotgan bo‘lsa-da, o‘zbek tilida ular hanuz yashab, tilning jonli qatlamini tashkil etadi. Dialektlar yordamida til o‘z tabiiy rivojini davom ettiradi, xalq tili bilan adabiy til o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik saqlanadi.

Bugungi kunda dialektlarni o‘rganish til tarixini chuqur anglash uchun, yangi lug‘atlar tuzishda, mahalliy folklor va og‘zaki ijodni tahlil qilishda, til siyosatini ilmiy asoslashda katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, dialektlar har qanday milliy tilning ildizi, uning tabiiy hayot manbai hisoblanadi. O‘zbek dialektlari o‘zbek adabiy tilining shakllanishida, boyishida va rivojlanishida beqiyos rol o‘ynagan. Ular xalq nutqining jonli shakli bo‘lib, adabiy tildagi so‘z boyligini to‘ldirib, badiiy asarlarga milliy ruh bag‘ishlaydi.

Demak, dialektlarni o‘rganish, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish nafaqat tilshunoslik uchun, balki milliy madaniyat va tarixni anglash uchun ham muhimdir. Dialektlarni qadrlash — o‘z tilimizni, demakki, o‘zligimizni asrash demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov A. O‘zbek tili dialektologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
2. Jo‘rayev M. O‘zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent: Fan, 2018.
3. Rahimov Sh. Til va xalq ruhiyati. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
4. Navoiy A. Muhokamat ul-lug‘atayn. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
5. Internet manbalari: www.ziyonet.uz, www.til.uz